Jo‘rayeva Zilola Sayfiddin qizi
NamDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: zilolajorayeva@gmail.com

RIVOJLANTIRUVCHI SOHALAR KOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHUV ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASI VA TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15636945

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi va texnologiyasini rivojlantirishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, tashabbuskorlik, kamolot, syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish, “til va nutq”, “san’at”, “ilm-fan va tabiat”

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasida: “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etnik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga biryillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi” – deyilgan.

Bugungi kunda jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy o‘zgarishlar, raqobatbardosh, ma’nan yetuk, yuksak qadriyatlarga ega shaxs tarbiyalash masalasini dolzarb muammolar qatoriga chiqarmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mehr-oqibat, hamjihatlik, vatanparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayon, eng avvalo, inson kamolotiga asos solinadigan maktabgacha ta’lim bosqichida izchil tashkil etilishi lozim. Chunki bolaning shaxsiy ongi, his-tuyg‘ulari, axloqiy qarashlari va jamiyatga munosabati aynan maktabgacha yoshda shakllanadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish, bu jarayonda bolaning har tomonlama rivojini hisobga olgan holda, integratsion yondashuv asosida rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Ayniqsa, jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish sohalarini hamohanglikda tashkil etish orqali ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni uyg‘un rivojlantirishga erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot ishimizda bolalarning barcha rivojlanish sohalariga asoslangan holda, ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishning zamonaviy metodika va texnologiyalarini tahlil qilishga harakat qildik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Syujetli-rolli o‘yinlar va drammalashtirish”, “Til va nutq”, “San’at”, “Ilm-fan va tabiat” va “Qurish, yasash, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish jarayonida rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashuv imkoniyatlari yuqori bo`ladi

Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Rivojlanish markazlarida bola shaxsining rivojlanishida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalariga

integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaxshi jihozlangan rivojlantiruvchi muhitsiz to'laqonli ta'lim faoliyatini tashkil etish mumkin emas. Axir, uning asosiy poydevori – bolalar ta'lim oladigan "Rivojlanish markazlari"dir. Guruhda biron-bir narsa shunchaki joylashtirilgan bo'lishi kerak emas. Guruhdagi barcha narsalar bolalarning bilimini oshirishga qaratilgan, pedagogik yoki tarbiyaviy (axloqiy, estetik) ta'sirini bajarishi kerak. Ya'ni, odatdagi oilaviy muhit bilan taqqoslaganda, MTTdagi muhit jadal rivojlanib boruvchi, bolaning bilim va qiziqishlari, ixtiyoriy fazilatlari, hissiyotlari paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bo'lishi kerak.

Rivojlanish markazlari pedagoglar bolalarga ular nima bilan va qayerda shug'ullanishni xohlayotgan bo'lsalar, shunday imkoniyatni taqdim etish uchun imkon yaratadi. Har bir markazda mavjud bo'lgan materiallar bolalarga predmetlarni o'rganish, turli o'yinlik vaziyatlarda o'z g'oyalarini yaratish va tekshirish, o'rganish yordamida o'z savollariga javoblarni topishga imkon beradi.

Rivojlanish markazlarida bolalar integrativ shaklda ta'lim oladi, ya'ni har bir rivojlanish muhiti boshqa rivojlanish muhiti bilan uzviy bog'liqlik asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ta'lim jarayoni uzviy bog'langan va integrallashgan bo'lishi kerak.

Rivojlanish sohalaridagi kutilayotgan natijalarni (rivojlanish ko'rsatkichlar) bolada rivojlantirish uchun bir haftalik tadbirlarni ko'rib chiqamiz

-O'yinlar (syujetli-rolli, ta'limiy, qoidali)
-Suhbatlar
-Badiiy adabiyot
-Bilish-tadqiqotchilik faoliyati
-Konstruksiyalar yasash
-Tasviriy faoliyat
-Musiqiy faoliyat

Rivojlanish markazlari bolaga hissiy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual kabi barcha sohalarda rivojlanishiga yordam berishini nazarda tutib, biz misol tariqasida "Nutq va til" markazi bolani jismoniy, ijtimoiy-hissiy va bilish konmpetensiyasi kabi barcha sohalarda rivojlanishiga ham yordam berishini tahlil qilamiz. Bunda biz "Nutq va til" markazida "O'zbekiston mening Vatanim" mavzusida ta'limiy faoliyat uchun Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidan foydalangan holda Davlat talablaridagi rivojlanish sohalarini o'zaro bog'lanishini nazarda tutib mashg'ulot ishlanmaga maqsadni belgilashni o'rganamiz.

"Nutq va til" markazida bolalar "O'zbekiston mening Vatanim" mavzusida ta'limiy faoliyat davomida o'zaro muloqot qilib, ona tilida so'zlashadilar, shunda nutqning moslashuvchanligini oshiradilar, so'z zaxirasini ko'paytiradilar, yangi tushunchalarni o'zlashtiradilar, bolalar mazmunli rasmlar orqali hikoyalar tuzadilar, o'qilgan badiiy asar yuzasidan savol-javoblarda qatnashadilar, nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy o'yinlar o'ynaydilar natijada ularda vatanparvarlik, xozirjavoblik, bilimdonlik, jasurlik, mardlik kabi ma'naviy-ax;oqiy sifatlar shakllanadi.

"Nutq va til" markazida bolalar "O'zbekiston mening Vatanim" mavzusida ta'limiy faoliyat davomida do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olish, mavzu asosida hikoyalar tuzish, guruh muhokamasida muloqotga kirishish va tinglab ishtirok etish imkoniyati mavjud.

Pedagog tomonidan bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? kabi savollar berish bilan muloqotga kirishishlariga imkoniyat berib, bolalarni surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undaladi, surat bo'yicha guruh muhokamasida muloqotga kirishish, mustaqil mazmunli hikoya tuzishga o'rgatiladi. "Mustaqillik bayrami", "Mustaqillik maydoni" kabi mavzularida lug'atni faollashtiriladi. Bolalar surat asosida voqealarni so'zlab berayotganlarida ovoz ohangining xilma-xil (so'roq, his-hayajon) turini qo'llay bilish ko'nikmalarini shakllantiriladi, nutqning

ifodaliligini tarbiyalanadi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi va uni amalga oshirish texnologiyasini yaxlit holda tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 19.05.2020- yildagi O'RQ-637-son

2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi / takomillashtirilgan ikkinchi nashr / Toshkent, 2022.

3. Irisbayeva M.N. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref.–Toshkent, 2020. – B.12-13.

4. Jamoldinova O. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2015.

5. Djurayev R., Torejonova R. Bolalarning axloqiy tarbiyasida xalq udumlari va an'a'nalaridan foydalanish // Xalq ta'limi, 2009. – №2.1999. –103 b.

6. Abdusamatova N.J. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2021

7. Irmatova M.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy tarbiya asosida ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish. https://zenodo.org/record/6634426. Konferensiya 11.01.2022

8. Abdullayev A.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 09.04.2021-yil -184-b.

9. Usmanova S.E. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy tarbiya asosida ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish. Education and innovative research 2021. № 1 -92-b.